

Nabijon Ermat

99

TEZ AYTISH
VA TOPISHMOQLAR



Nabijon Ermat

99

**TEZAYTISH VA
TOPISHMOQLAR**

7-kitob



Toshkent – 2019

UO'K 821.512.133-1

KBK 84(50')7

E 22

Ermat, Nabijon

99 tez aytish va topishmoqlar [Matn] / N.Ernat. – Toshkent: Muharrir nashriyoti. 2019. – 64 b.

ISBN 978-9943-5764-4-5

Ushbu kitobdagi tez aytish va topishmoqlar bolajonlarning tilining burro, nutqining ravon, zehning o'tkir bo'lishiga xizmat qiladi. Obrazli tasvirlar ularning dunyoqarashini kengaytirib, badiiy didini o'stiradi.

UO'K 821.512.133-1

KBK 84(50')7

Taqrizchi:

Ne'mat Dushayev,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

ISBN 978-9943-5764-4-5

© N.Ernat.

© «Muharrir nashriyoti»,
Toshkent, 2019.

O'QIGANLAR DIYORI

Tez aytish, topishmoqni,
Yozdim sizga, bolajon.
O'qib yodga olarsiz,
Sizda bor fursat, imkon.

Zukkolikning kaliti
Kitoblarning qatida.
O'qimasang, qolasan
Odamlardan narida.

Kitob nurdir – ziyodir,
Yo'lingiz yoritadi.
Mutolaa qilaylik,
Zulmatni aritadi.

Bolajonim, bilingiz,
Ziyo ustun, boylikmas.
O'qimagan kimsani
Hayoti ham moylikmas.

O'qigan ulug'lanar,
Bu – yaxshilar shiori.
Yashasin O'zbekiston –
O'qiganlar diyori!

TEZ AYTISHLAR

“A”

1. Aylanani asta aylangan ayiqlar, aqlli ayiqlar.
2. Asirdagi Asilni Azim asradimi, Azim asragani Asilmidi?
3. Asil Alimdan aldandimi, Alim Asildan aldandimi?

“B”

4. Bilag'on bola bilimdonmi, bilimdon bola bilag'onmi?
5. Bog'irsoq bug'doy bo'tqasidan bo'ladimi, bug'doy bo'lmasayam bog'irsoq bo'ladimi?
6. Bog'ko'chaning boshidagi Bahrom boymi, beriroqdagi Barno boyroqmi?

“D”

7. Do'st-do'stga do'stligini doim dalillaydi.
8. Davronning diyonatliligi dono do'stlarga dars.
9. Duradgor dutor dastasini dub daraxtidan dastaladi.

“E”

10. Egizaklar enagaga ergashib erkanishdi.
11. Egarsoz eshakni ertalabdan egarladi.
12. Eshitganlarimni eshitmaganlarga eshitirib eslatdim.

“F”

13. Fozillarning fayzli fazilatlari foydalidir.
14. Fayoz fabrikadagilarning faolligini fahmladi.
15. Farhod Farruxning fahmu-farosatidan faxrlandi.

“G”

16. Gulsumning gulzoridagi gullar gultavaklardagi gullardan goʻzal.
17. Gapni gapir gurungda gangir-gungur.
18. Gulbadanbегimning gilami gajakgulli gazlamaday.

“H”

19. Hamdam bobo hunarmand Hasanning hassasidan hayratlandi.
20. Hamma haftalik hordiqqa hozirlandi.
21. Hormang, hoy, haqiqiy hasharchilar.

“I”

22. It ikkita izni iskab-iskab irilladi.
23. Ijarador ijarachi injiqligidan injidi.
24. Iztopaqlar iz izlab ilgariga intildilar.
25. Ikkovlon izgʻirinda ilojsiz izgʻishdi.

“J”

26. Javlon jadvalning javobini Javdatga javray-javray joʻnatdi.
27. Jonli jarangda jozibadorlik jodir.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/4541> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/4541> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную
версию можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/4541>